

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI MÁDENIYAT HÁM
TURIZM MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHISI

ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSÍQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientificmethodical journal

№ 1

SHOLKEMLESTIRISHI:

O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali

- Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor w.w.a
Bas redaktor orinbasari: – Kamalova Dilduza, filologiya ilimleri boyinsha
filosofiya doktori (PhD)
Juwapli xatker: – Gulmira Palwanova

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

- Omonilla Rizaev** – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham madeniyati instituti, professor w.w.a.
Hikmat Rajabov – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali, professor w.w.a.
Sayyora Gafurova – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor
Oydin Abdullaeva – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor.
Qurbanbay Jarimbetov – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Alima Berdimuratova – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Ziyada Bekbergenova – OzR IA Qaraqalpaqstan bolimi, professor.
Oqilxon Ibragimov – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham madeniyat instituti, professor.
Azizbek Turdiev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatmn jaslar, madeniyat ham sport masaleleri komiteti basligi orinbasari, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).
Allanazar Abdiev – Filologiya ilimlerinin kandidati, Qaraqalpaqstan Respublikasi xaliq jazirshisi
Artiqbay Erejepov – Nokis qalaliq 1-sanli balalar muzika ham k'rkem oner mektebi, pedagogika ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).
Janabay Marziyev – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD), docent.
Iroda Mirtalipova – OzMK janindagi B.Zokirov atindagi MEKOl, k'rkem onertaniv ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).

JAMIYETLIK KENES:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| Baxtiyor Sayfullaev | Najimatdin Muxameddinov |
| Ozodbek Nazarbekov | Najimatdin Ansatbaev |
| Komoliddin Urinbaev | Gulistan Annaqlicheva |
| Dawitbay Qurbaniyazov | Rayxan Saparova |
| Qalbay Turdiev | Paraxat Mamutov |

MAZMUNĪ

Алланбаев Р. Миллий мәдеиятымызды рауажландыруу жолында және бир кәдем	3
--	---

MUZİKATANIŲ

Мамутов П.А. Замангәй музыка тәлим системасын жетилистириуде рууыйлыктын орны	5
Пахратдинов Ш. Работа над произведением крупной формой	10
Sayidov T. D. Xonandalik ovozing fiziologik va akustik xususiyatlari	14
Мирталипова И.М. Ҳинд мусика назариясидаги товушкатор структураларига бир назар	16
Raimova D.M. O'rta Osiya musiqa cholg'ularining paydo bolish tarixi	20
Расулов М.М. Мусика, теле ва радио дастурларнинг муҳим компоненти ва композицион омили сифатида (тембр, темп, ритм, импульсивлик мисолларида)	23
Matyakubova U.G'. V-XV asrlar markaziy Osiyada musiqa madaniyatining nazariy asoslari	28

KŲRKEM ŲNER

Ражабов Х.Ж. Арсланбай Нажимов ижодига бир назар... ..	33
Matimuratov S.E. Qaraqalpaq kompozitori Kenesbay Abdullaev dōretiwshiligi haqqında	35
Qutekeeva R.A. Qaraqalpaq kōrkem ōnerinde Ilish Xojametovtın tutqan ornı	39
Allaniyazov B.Q. Muzika kōrkem ōnerinin bayteregi (<i>Kompozitor Najimatdin Muxammeddinovtın ōmiri ham dōretiwshiligi haqqında</i>)	44
Чаршемов Ж.А. «Қоблан» балетининг композицион хусусияти	48
Абдуллаева Ш.С. Труд все побеждает	57
Abatbaeva R.A. Qaraqalpaq kōrkem ōnerinde kompozitor Gayıp Demesinovtın tutqan ornı	61
Палўанова Г.А. «Аязий» драмасында кахарман характерин сәулелендириўдиц өзине тән қасийетлери	65
Палўанова Г.А. Каракалпакстанда театр режиссурасының пайда болыуындагы миллий дәреклер	68
Muxammeddinov Q. Milliy opera ham balet janrdagi tarixiy shigarmalar	71
Parmonov D.R. «Doira va urma zarbli cholg'ulari» musiqa san'atining yorqın namoyondasi	75
Каримова И.И. Традиции исполнения музыки Каракалпакского композитора Гаип Демесинова	78

ATQARIŲSHILIŲ ŲNERI

Erejepov A.A. Baqsishılıq kōrkem ōnerinde dōretilgen qosıq ham namalarını jaslar tarbiyasındağı ahmiyeti	83
Tnıbaev P.K. Dirijyorlıq kōrkem ōnerinin turleri ham evolyuciyası	87
Шарипова А.Р., Сидикова А.М. К вопросу о фортепианном исполнительском искусстве в Узбекистане	92
Ayubov K.Z. Foniologiya va odam ovozi tasnifi	95
Ziyovutdinova Z.U. XIX asrning ikkinchi yarimida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidagi jiddiy o'zgarishlar	98
Dadaboyev X.M. Xalq cholg'ulari ansamblarini tashkil etish	100
Aliev N.G. Demli saz āsbaplar tarixi, klassikalıq muzika ham onın būgingi kündeğı tutqan ornı	102

Saidxonov A.S. Cholg‘u konsert janri tarixi va taraqqiyoti	105
Jumabaev A.E. Qaraqalpaq k�rkem �nerinde xaliq namali qosiqclarinn tutqan orm	110

MUZIKA PEDAGOGIKASI

Xojanazarov T. Vokal pedagogikasidagi metodlardi zamanag�y pedagogikaga aylantiruv usillari	115
Ходжаметова Г.И. Задача обучения, воспитания и развития детей в музыкальной школе	117
Botirova X.T. Musiqa taʼlimi pedagogikasida oʻquvchi yoshlarni maʼnaviy-axloqiy taʼlim-tarbiyasini shakllantirish	121
Saidumarov I. Taʼlim-tarbiya va shaxsning maʼnaviy kamoloti xususida sharq allomalarining qarashlari	124
Абдисултанов Ж.Дж. Болалар мусика ва санъат мактабларида «Мусика адаби�ti» фанини �kitishda инновацион ёнлашув	128
Мат�кубов Э.Г. Мусикада модулли таълим асослари	131
Najmetdinova N.I. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatining ahamiyati va mazmuni	137
Iseev R.A. Fortepiano paninin jah�n muzika oquv prosesidagi ahamiyeti ham orm	141
Dauletbaev T.K. Milliy saz asbaplarm mektep oquvshilarma �yretiw�n ahamiyeti	145

J MIYETLIK-GUMANITAR P NLER

Бекбергенова З.У. Каракалпак халык д�станы «Қырык кыз» х�м х�зирги каракалпак драматургиясы	150
Утепова Т.Б. Маданиятлараро мулохот тахлиллари Европа олимлари назарида	153
Жумашева А.Х. Интерактивные при�мы и формы проведения практических занятий	159
Саденова Г.П. Каракалпак паремиологиясында жаксылык концепти	163
Mambetnazarov M.K. Hoja Axmet Yassawiy hikmetlerinin jaslar tarbiyasidagi ahamiyeti	166
Марзияев Ж.К. Маќаланыц публицистикалык сыпатламасы	169
Камалова Д.�. Шыгарма композициясында турмыс шынлыгын с�улелендири� шеберлиги	171
Мамбетназарова Р.К. Идеино-тематические особенности жанр путешествия в Каракалпакской литературе (на примере «Путешествия в пять стран по океану» Тажена Изимбетова)	175

JAS IZERTLEWSHILER

Paxratdinov J.A. Kop qirli talant iyesi	180
Jumamuratova A.A. Qaraqalpaqstanda Opera janrinn tutqan orm	181
Muratbaeva A.A. Jaslard�n muzikal�q intellekt�n asir�wda muzika sinshisi Gulmaryam Kamalovanin orm	185
Orazalieva G.S. G�llengen dawirde — Jana namalar (Jamil Charshemov d�retpeleleri haqqında)	186
Segizbaeva G.Q. Qaraqalpaqstanda daslepki muzikal�q drama janrinn payda bolıwı	188

FONIOLOGIYA VA ODAM OVOZI TASNIFI

Ayubov K.Z.

Yu.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa sa'nati instituti

Annotatsiya: Inson ovozi noyob tabiiy hodisadir. Ovozni ko'pgina fanlar turli jihatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Biroq, bu fanlarning hech biri organizmning bu funksiyasi haqida yaxlit tushunchani shakllantira olmaydi. Ularning barchasi ma'lum bir muammolarning o'ziga taalluqli bo'lgan jihatlarinigina o'rganish bilan cheklanadi. Ushbu maqolada foniologiya fanini nutq va xonandalik yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga o'rgatish muhimligi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, maqolada inson ovozinin tasnifi ham keltirib, bir nechta turlariga qisqacha izoh ham berilgan.

Kalit so'zlar: foniologiya, ovoz, tovush, ovoz tasnifi, ta'lim jarayoni, nutq, xonandalik.

Аннотация: Человеческий голос-уникальное природное явление. Изучением голоса занимаются многие дисциплины в различных его аспектах. Однако ни одна из этих наук не может сформировать целостного представления об этой функции организма. Все они ограничиваются изучением только тех аспектов конкретных проблем, которые касаются их самих. В этой статье представлена информация о важности преподавания фониологии студентам, изучающим речь и пение. В статье также приводится классификация человеческого голоса и дается краткое объяснение нескольких его типов.

Ключевые слова: фониология, голос, звук, классификация голоса, образовательный процесс, речь, пение.

Summary: The human voice is a unique natural phenomenon. Many disciplines are engaged in the study of the voice in its various aspects. However, none of these sciences can form a holistic view of this function of the body. All of them are limited to studying only those aspects of specific problems that concern themselves. This article provides information about the importance of teaching phonology to students studying speech and singing. The article also provides a classification of the human voice and a brief explanation of several of its types.

Keywords: phonology, voice, sound, voice classification, educational process, speech, singing.

Bir jihatga e'tibor berish lozimki, ovoz bilan bog'liq bo'lgan barcha ilmiy va amaliy yo'nalishlar u yoki bu tarzda 3 ta asosiy komponentga asoslangan bo'ladi: ovoz hosil qiluvchi a'zolarining anatomiyasi, ovoz fiziologiyasi va gigiyenasi. Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan ovoz sozlashni vokalizatsiya paytida yuzaga keladigan jarayonlarni aniq tushunmasdan amalga oshirish juda mushkul. Shuningdek, otorinolaringolog, foniatr tomonidan tashxis qo'yish va keyingi davolanish jarayoni fanlararo bilimlarsiz mukammal bo'lmaydi, balki bu ko'pincha xatolarga yo'l qo'ymaslikka va bemorga har tomonlama tavsiyalar berishga yordam beradi.

Yagona asosiy fan va yagona terminologiyaning yo'qligi anatomik va fiziologik muammolarda, ovoz apparati patologiyalarining yuzaga kelish sabablari, ovoz gigiyenasi, xonandalik nutq mutaxassilarining professional umrini uzoqroq saqlash kabi masalalarda kasbiy savodsizlikning shakllanishiga olib keladi [4]. Bu muammo ham tibbiyot xodimlari, ham pedagoglar uchun birdek taalluqli sanaladi. Ko'p hollarda fonatsiya haqidagi g'oyalar ilmiylik, tizimlilikdan mahrum bo'lib, shaxsiy his-tuyg'ularga asoslangan va stereotipik xarakterga ega.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari, xonandalik yoki nutq o'qituvchilari tomonidan tibbiy adabiyotlar tomonidan taqdim etilgan hajmdagi fonatsiya fiziologiyasini o'rganishi oson kechmaydi [1]. Tibbiy atamalar bilan to'ldirilgan katta hajmdagi ma'lumotni maxsus tayyorgarliksiz talabalar tushuna olishmaydi. Shuningdek, shifokor uchun xonandalik texnikasi asoslarini o'rganish ham qiyin. Moslashtirilgan adabiyotlarning yetishmasligi va fanlararo bilimlarni o'zlashtirish zarurati bilan o'z-o'zini rag'batlantirish darajasining pastligi ovoz

apparati patologiyasini tashxislash va davolash, professional xonandalik va nutq ta'limi, xonandalik va nutq sohasi mutaxassislarining kasbiy faoliyatida mavjud bo'lgan tanqidiy vaziyatga olib keldi. Mana shu holatlarni bartaraf etish va turli muammolarni oldini olish uchun bugungi kunda jahon ta'limi tizimida foniologiya fani kiritila boshlandi.

Foniologiya — bu odam ovozi haqidagi fan. Uning asosiy vazifasi ovoz va ovoz xosil qilinishi haqidagi asosiy ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirishdan iboratdir. Masalan, fizika nuqtai nazaridan ovoz ovoz apparati yordamida hosil qilinadigan turli kuch va balandlikdagi tovushlarning umumiyligidan iboratdir. Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan esa, ovoz samarali muloqot vositasi, shuningdek, keng ko'p madaniyatli makonni (barcha nutqiy – ovoz san'ati turlari) shakllantirish vositasidir. Ovoz haqidagi ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish orqali jarayonni ovozni tasniflashdan boshlanishi kerak. Quyida odam ovozining tasnifini keltiramiz:

Ovoz turlari:

- odatiy
- falset
- vestibulyar-burmali

Ovoz mansubligi bo'yicha turlari:

- erkak ovozi
- ayol ovozi
- bolalar ovozi [2].

Ovozdan foydalanish usullari:

- nutq
- kuylash
- ovoz effektlari

Ovozdan foydalanish darajasi:

- maishiy
- professional

Kuylashda ovoz chiqarish usuliga ko'ra:

- akademik (mumtoz)
- estrada-jazz
- xalqona ijro

Nutqda ovoz chiqarish usuliga ko'ra:

- uslub
- dialektlar
- aksentlar

Ayollar xonandalik ovozi turlari:

- koloratur soprano
- lirik – koloratur soprano
- lirik soprano
- lirik – dramatik soprano
- dramatik soprano
- yuqori messo - soprano
- markaziy messo – soprano
- kontralto [4].

Erkaklar xonandalik ovozi turlari

- tenor-altino
- kontrtenor
- messo-tenor
- lirik tenor
- liriko-dramatik tenor
- dramatik tenor

- lirik bariton
- lirik-dramatik bariton
- dramatik bariton
- yuqori bas
- markaziy bas
- bas-profundo

Bolalar xonandalik ovozi turlari:

- soprano (qizlar uchun)
- diskant (o'g'il bolalar uchun)
- alt (o'g'il va qiz bolalar uchun)

Emissiya xususiyatlariga ko'ra:

- yumshoq
- qattiq
- aspiratsiyalangan
- nazalizatsiyalangan
- o'zgartirilgan (xarsh, skrim, fray, inxeyl, shrayk va hokazo)

Foniologik apparatni shakllantira turib, eng avvalo fiziologik me'yorni chegara holatidan va ovoz patologiyasidan farqlab olish kerak [3]. Masalan, odam tomonidan har kuni ishlatiladigan odatiy ovoz yopiq ovoz paylari orqali o'tadigan havo oqimi natijasida yuzaga keladigan aerodinamik jarayonlar bilan birgalikda mioelastik xususiyatlari tufayli hosil bo'lgan ovoz paylarining tebranish faolligi natijasida hosil bo'ladi. Shu bilan birga, bosh va ko'krak registrlarining ohanglarining tembrda o'z o'rnini bor [4]. Fonatsiyaning yengil rejimiga o'tganda ovoz paylarining faqat chekka qismlari tebranib turib yuqori chastotali tovush chiqaradi va bosh registrining ohanglarini, go'yo tembrdan ajratib qo'yadi. Bunday ovoz falset deb ataladi (italyan tilida «yolg'on» deganidir).

Tovush hosil qilish uchun halqumning vestibulyar burmalaridan foydalanish qobiliyati to'liq past tonli tovushni – vestibulyar-burmali ovozni hosil qilish imkonini beradi, buning natijasida bo'g'izda kuylash imkoni tug'iladi. Barcha turdagi ovozlardan foydalanish mumkin va bu holat fiziologikdir [1]. Bundan tashqari, u universaldir, ya'ni jins va yoshga bog'liq emas. Falset va ayniqsa vestibulyar-burmali fonatsiya turiga maxsus o'rganish talab etiladi. Ijro amaliyotida har xil ovoz turlari, shuningdek ularning kombinatsiyalari keng qo'llaniladi.

Halqumning ovoz hosil qilish funksiyasini har tomonlama ko'p qirrali tushunish pedagogik va klinik amaliyotda, ovoz shakllanishining funksional buzilishlari bo'lgan bemorlarni har tomonlama reabilitatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Ovozdan professional maqsadlarda foydalanish ovozning zo'riqishi tushunchasini shakllantiradi va bu holat xonandalar, aktyorlar, o'qituvchilar, diktorlar va shu kabi kasblarda zararli professional omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ovoz zo'riqishi – bu ko'p omilli tushuncha bo'lib, ovoz zo'riqishining xronometraji, uning turli shakllari va parametrik xususiyatlari, ishlab chiqarish, maishiy va somatik omillarni o'z ichiga oladi [4].

Umuman olganda bu kabi ko'plab muammolar ovoz bilan ishlovchi kasb egallari faoliyatida uchraydi. Ularni oldini olish, bartaraf etish uchun foniologiya fanini rivojlantirish va ta'lim tizimiga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. *Dmitriyev L.* Osnovi vokalnogo metodiki. – M., 2000.
2. *Matyoqubov O.* «Maqomot». – Toshkent: 2004.
3. *Rudin L. B.* Osnovi golosovedeniya. – M.: Granitsa, 2009.
4. *Matyoqubov Sh.* «Maqom xonandaligida o'qitish uslubi». – Toshkent: 2015.
5. O'zbekiston davlat konservatoriyasi. Yilnoma 2013. O'zgaruvchan siyosiy-madaniy muhitda musiqa va musiqachilarning o'rnini. Toshkent – 2014.